

QOFIYA POETIK SAN'ATI VA UNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Berdiyev Xusan Xolnazarovich

Filologiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent

Samarqand, Iqtisodiyot va
pedagogika universiteti Samarqand
kampusi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada badiiy san'atlardan biri qofiyaning turkiy adabiyotda qo'llanishi lingvistik poetika masalalari aspektida yoritib berilgan. "Devonu lug'otit turk" asarining lingvopoetika tarixini o'rganishdagi muhim o'rni dalillar asosida ko'rsatib berilishiga harakat qilingan. Asar materiallarining tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ahamiyatli tomonlari qayd etilgan.


Tayanch so'zlar: badiiy san'at, badiiy uslub, lingvistik poetika, belgi va ma'no, qofiya, "Devonu lug'otit turk".

Jahon filologiya fani yutuqlari tajribasidan ma'lumki, tilshunoslik va adabiyotshunoslik (umumfilologiya) taraqqiyotida o'tilishi lozim bo'lgan bosqichlar mavjud. Shulardan biri til hodisalari va ularning namoyon bo'lish usullari sistem-struktural aspektda o'rganish masalasidir.

H.Ne'matov, R.Rasulovlar tomonidan ta'kidlanganidek: "XX asr tilshunoslik fanidagi keskin burilish nimadan iborat? (jahon tilshunosligi nazarda tutilmoqda – H.B.). Bu tilga tizim sifatida yondashish hamda til va nutq hodisalarini farqlashdan iboratdir. Nazariyotchi tilshunoslarning ushbu savolga shunday javob berganlari ayni haqiqat. Binobarin, til va nutq hodisalarini farqlash, tilga tizim sifatida yondashish,

tilni tizim qonuniyatlari asosida o'rganish tilshunoslikda katta bo'rilish yasadi va tilshunoslik fanining rivojiga jiddiy turtki bo'ldi" [Qarang: Ne'matov va b, 3].

Til va nutq hodisalari umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning bunday munosabati paradigmatic va syntagmatic chiziqlar kelishuvida yorqin namoyon bo'ladi. Til hodisalarining o'z va ko'chma ma'nolari hissiy – tog'sirdor ko'lamlari nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Poetik nutq esa buning mukammal namunasi hisoblanadi. Bunda nutq ma'lum maqsadlarga xoslanadi va til hodisalari fikr ifodalanish vrsitasi sifatida ishtirok etadi. Shu jihatdan "tilning ikkiyoqlama va o'zaro zid xususiyatida namoyon bo'ladigan tabiati har qanday nutq aktida bo'lgani kabi poeziyada ham ikki jarayonni o'z ichiga oladi: seleksiya (tanlash) va kombinatsiya (tanlangan lisoniy) birliklarni o'zaro bog'lab "chatishtirish", ya'ni birikma, gap yasash. Bu quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin:



Til birliklari chizmaning vertikal (paradigmatic) o'qida tanlanib, gorizantal (syntagmatic) o'qida birikadi. Vertikal holat ayni paytlilik o'qini, gorizantal holat esa, ketma-ketlik o'qini hosil qiladi. Shuningdek, vertikal o'qdagi elementlar o'zaro o'xshashlik belgilariga ko'ra munosabatda bo'lsa, gorizantal o'q bo'ylab joylashadigan elementlar yonma-yonlik (ketma-ketlik, o'zaro bog'langanlik) munosabatda bo'ladi [Mirzaev, 120].

Ko'rinadiki, til va nutq hodisalarining umumiy va ayrim xususiyatlari farqlanadi va shu asosla yuzaga keladigan hosilalarning poetik nutqdagi ko'rinishlari san'atkorlikni yuzaga keltiruvchi omil bo'ladi. Shuning uchun prof. I.K.Mirzaev Arnold nazariyasiga ko'ra, vertikal (paradigmatic) o'q metafora, gorizantal o'q esa metanimiya hosil qilishning asosi hisoblanishini ta'kidlaydi [Qarang: Mirzaev, 120].

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, she'riy san'atlar lisoniy xususiyatiga ko'ra quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- fonografik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- fonetik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- fonetik-ritmik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- leksik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- leksik-ritmik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- morfemik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- morfologik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- sintaktik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar;
- sintaktik-ritmik hodisaga asoslanuvchi badiiy san'atlar.

Ta'kidlash joizki, qofiyada ham mazkur belgilarning ayrimlari aks etadi. Quyida ularning turlari va ifodlanish usul hamda vositalari haqidagi kuzatishlar bayon qilinadi.

Bu o'rinda, dastlab, tovushlarning poetik maqomi masalasiga to'xtalib o'tmoq joiz. Zero, tovushlar badiiy matnda ham ritm, ham kompozitsiya uchun xizmat qiladi. Ular ishtirokida, tabiiyki badiiy san'atlar yuzaga chiqadi. Chunonchi, quyidagi misol buning dalilidir. Qiyoslang:

Анїн	їшїн	кечурдум,
Эшїн	їма	қачурдум,
Оїнум	отїн	їчўрдўм,
Ічмі	болуб	їўзі мәрін

Ushdu parchada misralar sonorlar bilan yakunlanadi, biroq dastlabki uch misrada zamon va shaxs-son ma'nolari sonor ishtirok etgan so'zlar orqali oxiri to'rtinchi misrada "Ichmi" so'zi ishtirokida ifodalangan. To'rtinchi misraning tugallovchi so'zi ham sonor tovush bilan nihoyalangan va oyni shu xususiyat sonorlarning misralararo ritmik saqlanishida ham xizmat qilganligini ko'rsatadi. Parchada kelgan 13 ta so'zdan 9 tasi sonorlar bilan tugallanganligi ham fikrimizning dalilidir.

____ N ____ N ____ M,
____ N ____ M,
____ M ____ N ____ M,
____ N.

Umuman, qofiya tarkibidagi soʻzlarning har 2 tizimini oʻrganish, tovushlarning lingvistik taʼrifini boyitish va ularning poetik maqomi borasida fikr bildirish uchun muhim omil boʻladi.

Qofiya sheʼr tuzilishidagi muhim komponent boʻlgani bois, uning funksiyasi, qonuniyatlari, turlari, tarkibi, tartibi haqida darslik, qoʻllanma va lugʻatlarda bir-birini toʻldiruvchi maʼlumotlar berilgan,* shuningdek, fonetik, leksik-semantik, stilistik, morfologik xususiyatlari monografiya, dissertatsiya va ilmiy maqolalarda bayon qilingan*. Albatta, badiiy asarlarning lingvistik xususiyatlarini oʻrganish borasida amalga oshirilgan ishlar ham munosabat aspekti nuqtai nazaridan turli yoʻnalishda boʻlib, tadqiqotlarning baʼzilarida umuman badiiy asar lingvistikasi¹, baʼzilarida muayyan bir ijodkor ijodi² yoki biror asarga³ murojaat qilingan. Toʻgʻri, qofiyaning leksik – semantik, morfologik tarkibi monografik planda maxsus tadqiq etilgan, qofiyada ishtirok etuvchi adabiy, dialektal hamda oʻzlashma soʻzlar, ularning

*Султон И. Адабиёт назарияси. – Т., 1980; Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. – Т., 1978; Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Ибрагимов С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т., 1967 ва бошқалар.

* Рустамов А. Қофия нима? – Т., 1976; Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т., 1976; Ҳамраев М. Основы тюркского стихосложения. Алма-Ата, 1963; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т., 1983; Мирзаев С. Ўзбек адабиётида қофия. //ЎТА, 1972, №3; Саримсоқов Б. Қофия ва шеър системаси ҳақида.// ЎТА, 1975, №6; Мирҳайдаров Ҳ. Яна қофия ва шеър системаси ҳақида. // ЎТА, 1976, №2; Ҳаққулов И. Рубоийда композиция ва қофия. //ЎТА, 1976, №3; Тўхлиев Б. «Қутадғу билик»да қофия. //ЎТА, 1980, №1 ва бошқалар.

¹ Маълумот учун: Абдурахмонов Ф. Адабиётлар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Т., 1966, 291-б; Қўчқортөев И. Бадий нутқ стилистикаси. Т., 1975; Аҳмедов А. Бадий асар тилини ўрганиш ҳақида. // ЎТА, 1960, №23, 40-45-б; Қиличев Э.Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Т., Фан, 1982; Умурқулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи. Автореф.дис. к.ф.н.- Ташкент, 1983 ва бошқалар.

² Рустамов А. Навоий тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари. Дис. на соис. уч.ст.докт.ф.н. – Ташкент, 1966; Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Т., Фан, 1984.; Маҳмудов Н.М. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // ЎТА, 1987, №4, 44-47-б; Яриев Б. Язык поэзии Максуда Шайх-заде. Автореф. дис.к.ф.н.-Ташкент, 1979.

³ Назарова Х. Синтаксический строй языка «Бабурнаме» Захириддина Мухаммада Бабура. Автореф. дис. докт.ф.н.- Ташкент, 1980; Ҳамидов З. Лексико-семантический и лингвистические исследования языка «Лисан-ат-тайр» Алишера Навои. Автореф.дис.к.ф.н. – Ташкент, 1982.

lingvistik va poetik xususiyatlari o'rganilgan⁴. Bunday ishlarda mumtoz va yangi o'zbek adabiyoti namunalari tahlilga tortilganligini ham aytib o'tish lozim.

Qofiya hosil qilishda fe'l va ot so'z turkumlari ancha faol hisoblanadi. Albatta, bu kuzatishlarimiz tadqiq ob'ekti bo'lgan adabiy parchalarga aloqadordir. Ayni paytda esa, keyingi davr she'riyatida ham bunday hodisani kuzatish she'r tuzilishida asosiy komponent hisoblanuvchi unsurlarni vujudga keltiruvchi so'z turkumlarining qo'llanish darajasi va buning sabablarini ochishda ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ot yoki fe'l so'z turkumiga qofiyadosh bo'lib kelgan so'zlar qaysi mavzudagi asarlarda ko'plab uchrashini aniqlash imkonini ham yaratadi. Aytmoqchimizki, badiiy asar poetik xususiyatini o'rganishda uning lingvistik tomoniga alohida e'tibor qaratmoq darkor. Shunda qaysi janrdagi, mavzudagi va turdagi asarlarda qanday so'zlar, nima maqsadda qo'llanayotgani aniqlanadi. Bir paytning o'zida bir so'z necha ma'noda ishlatilgani va uni qaysi ijodkor qanday qo'llay olgani, ya'ni o'ziga xos uslubi bilan bog'liq masalalarga to'liqroq oydinlik kiritish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, poetik matn, xususan, o'sha sistemada bo'lgan biror unsur alohida olib qaralar ekan, bunda, uning qanday hosil bo'lganligi - vazifaviy va fonetik xususiyatlarni ham yaqqol namoyish etadi.

Umuman, yuqorida bayon qilinganlar asosida quyidagi mulohazalarni bildirish mumkin.

1. Ilm-fanning turli sohalari uchun qimmatli manba hisoblanuvchi "Devonu lug'otit turk"da uchraydigan adabiy parchalar g'oyaviy-badiiy tadqiq etish imkonini yaratadi.

2. Adabiy parchalarda turli she'riy san'atlar qo'llanilgan bo'lib, ular turkiy poeziyada she'riy san'atkorlikning ancha oldingi davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

⁴ Мирзаев И.К. Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы. – Т., 1990.

3. Adabiy parchalarda qo‘llangan she‘riy san‘atlardan biri tarsi’ hisoblanadi. Darhaqiqat, A.Husayniy ta‘kidlanganidek, bu san‘at namunasini nafaqat she‘riy, balki nasriy asarlarda ham uchrashi mumkin. A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari buning yorqin misolidir.

4. Qofiya san‘ati bilan aloqador ravishda tarsi’ qo‘llangan she‘rlarda tajnis, hojib va radif kabilardan ham foydalanilgan. Ayni paytda, bular bilan parallel ravishda mazkur she‘rlarda ma‘naviy san‘atlar (chunonchi, mubolag‘a va b.) ham qo‘llangan.

5.Dastlabki xulosa sifatida aytish mumkinki, “Devonu lug‘otit turk”dagi she‘rlarning badiiy xususiyatlarini o‘rganish uchun yetarlicha ma‘lumotlar mavjud. Shu o‘rinda aytish joizki, badiiy asar ta‘sir kuchini ta‘minlovchi vosita o‘laroq jilolanuvchi she‘riy san‘atlar hozirga qadar, asosan, XI asrdan keyingi davr adabiyotiga alohida ahamiyat berilgani, shubhasiz. Agar she‘riyatda badiiy san‘atkorlik masalasi bevosita “Devonu lug‘otit turk”dagi adabiy parchalar bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladigan bo‘lsa, badiiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanishi va taraqqiyoti haqida yanada muhim tadqiqotlarga yo‘l ochilishi mumkin. Zero, har qanday badiiy asar o‘sha davrga xos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, badiiy estetik tasavvur-tushunchalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.